

EVFEMIZMLAR O'QUVCHI NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10033651>

Dilobar Imamkulovna Gulamova

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti tadbirkor, ijodiy tafakkuri yuksak, har qanday qiyin vaziyatdan o'z aql-idroki, mustaqil ijodiy tafakkuri bilan omon chiqa oladigan, shuurida milliy ruhi mustahkam bo'lgan shaxsni tarbiyalashni taqozo qiladi. Davlatimiz siyosati negizida shaxs farovonligi va baxt-saodatini ta'minlash yotar ekan, unda shaxs tarbiyasi yuqorida ko'rsatilgan maqsaddan boshqa mo'ljalda tashkil etilishi mumkin emas. Bu jarayonda: "Maktab bu – hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi burchiga aylanishi kerak".

Demak, bosh maqsadimiz "«ta'lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat" ekan, buning asosiy vositalaridan bo'lgan ona tili ta'limi masalasiga an'anadagidan farqli ravishda butunlay boshqacha ko'z bilan qarashimiz lozim.

Kalit so'zlar

maktabda ona tili ta'limi, ona tili ta'limi maqsadi, pragmatik qiymatli topshiriq, mustaqil fikrlash

ЭВФЕМИЗМЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧЕНИКОВ

Дилобар Имамкуловна Гуламова,

Учитель Азиатского международного университета

Аннотация

Конкурентоспособная рыночная экономика требует воспитания предпринимателя, человека с высоким творческим потенциалом, человека, способного пережить любую сложную ситуацию собственным умом, независимым творческим мышлением, сильным национальным духом. Поскольку политика нашего государства основана на обеспечении благополучия и счастья личности, то воспитание личности не может быть организовано ни для какой другой цели, кроме указанной выше. «Школа – это вопрос жизни и смерти, вопрос будущего. Это не

может решить только государство, правительство или губернаторы. Этот факт необходимо учитывать».

Таким образом, хотя наша главная цель состоит в том, чтобы «развить навыки самостоятельного мышления учащихся», нам необходимо взглянуть на обучение на родном языке, один из основных инструментов, с совершенно иной точки зрения, чем обычно.

Ключевые слова

обучение родному языку в школе, цель обучения родному языку, прагматическое ценностное присвоение, независимое мышление

EUPHEMISM AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEECH CULTURE

Dilobar Imamkulovna Gulamova,
Lecturer at Asia International University

Abstract

A competitive market economy requires the education of an entrepreneur, a person with high creative potential, a person who is able to survive any difficult situation with his own mind, independent creative thinking, and a strong national spirit. Since the policy of our state is based on ensuring the well-being and happiness of the individual, the education of the individual cannot be organized for any other purpose than the one indicated above. "School is a matter of life and death, a matter of the future. This cannot be decided only by the state, government or governors. This fact must be taken into account".

So, while our main goal is to "develop students' independent thinking skills", we need to look at native language learning, one of the main tools, from a completely different perspective than usual.

Key words

mother tongue teaching at school, purpose of mother tongue teaching, pragmatic value appropriation, independent thinking

5-6-sinf ona tili darslarida evfemizmlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish usullari

Ravon so'zlamog va bexato yoza olmoq ziyolilikning ibtido belgisidir. Insonda tafakkur tili, odatda, ona tili bo'ladi. Kishi ona tilida o'ylaydi, ona tilida fikrlaydi, ona tilida dilidagini tiliga, nutqiga ko'chiradi. Ilk so'zi ham, so'nggi kalomi ham ona tili bilan bog'liq. Demak, til millat bilan vobasta. Millatning yaratuvchisi onalarimiz. Shuning uchun ham tilga nisbatan ona tili birligi ishlatilishi tabiiy hol.

Ha, tilga ona tili darajasining berilishi unga xalq tomonidan, uning sohiblari tomonidan ko'rsatilgan yuksak ehtirom namunasidir.

Manbalarda millat~til~davlat bir-birini taqozo etuvchi, hech biri alohida faoliyat ko'rsata olmaydigan va biri-birisiz to'laqonli bo'la olmaydigan serqirra kategoriyalar sifatida e'tirof etiladi. Fikrimizcha, bu sirani ona ~ til ~ millat ~davlat~taraqqiyot sifatida to'ldirish zarur. Vaholanki, til ummon misoli. U shevalardan, boshqa tillardan kirib kelgan lisoniy birliklar - jilg'alar hisobiga to'lib mavjlanib turadi. Shuning uchun tilning lug'at tarkibi ochiq sistema sanaladi. Jamiyat taraqqiyotida yangi-yangi tushunchalarning dunyoga kelishi bilan tilda ularning nomlari ham paydo bo'ladi. Demak, ijtimoiy hayotda ro'y bergan jamiki o'zgarish, yangilanish, avvalo, onalarimizdek beminnat, haroratli tilimizda o'z aksini topadi.

Til millatning borligini, borlig'ini ko'rsatuvchi asosiy belgi ekan, demak, uning ta'limi masalasi hamisha jiddiy e'tiborga molik. Bugun maktabda ona tili o'quv predmeti ta'limi uchun dars soatlari taqsimoti sinflar kesimida quyidagicha ko'rsatilgan:

<i>sinflar</i>	<i>haftalik yuklama</i>	<i>yillik yuklama</i>	<i>fakultati v dars soati bilan</i>
5-sinf	3 soat	102 soat	136 soat
6- sinf	3 soat	102 soat	136 soat
7- sinf	2 soat	68 soat	102 soat
8- sinf	2 soat	68 soat	102 soat
9- sinf	2 soat	68 soat	–

Dars soatlarida 2020/2021-o'quv yilidan boshlab 45-50 foizgacha qisqarish bo'lishini yoqlamagan holda tahlillarimizni davom ettiramiz.

Ona tilining umummilliy dasturi⁹¹ga muvofiq o'rta umumta'limning 6-sinfida ona tili mashg'ulotlari uchun (fakultativ dars soatlari bilan birga) 136 soat vaqt berilgan bo'lib, shundan 10 soati 5-sinfda o'tilgan «Leksikologiya» sathini takrorlashga, 7 soati o'tilganlarni takrorlashga, qolgan soati «Morfologiya» sathini o'rganishga ajratilgan soatlardir.

Ona tilining yangilangan dasturi va DTS talablariga muvofiq **6-sinf o'quvchilarning o'zlashtirishi kerak bo'lgan zaruriy bilimlar** quyidagilar:

⁹¹ O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. 1-11-sinflar. 2020-yil.-166 bet. <http://uzviylik.tdi.uz/>

Leksikologiya. Soʻz va uning maʼnolari. Sinonimik qator, sinonimik qatordagi bosh soʻz, frazeologik sinonimlar, leksik sinonimlar. Sinonimiya stilistikaning asosi ekanligi. Stilistik vosita. Uslubiy chegaralangan soʻzlar. Atama. Shevaga xos soʻzlar. Kasb-hunarga oid soʻzlar. Tasviriyl ifoda. Ishlatilish doirasi cheklangan soʻzlar. Yangi paydo boʻlgan soʻzlar. Oʻzlashgan soʻzlar. Eskirib qolgan soʻzlar. Faol soʻzlar. Faol soʻzlarning soʻzlashuv uslubiga xosligi. Passiv soʻzlarning kitoviy uslubga xosligi. Leksikografiya.

Morfologiya. Soʻz yasash yoʻllari. Yasama soʻzning tarkibi. Soʻzning asosi. Oʻzak. Oʻzakdosh soʻzlar. Sodda va qoʻshma soʻzlar. Juft soʻzlar. Qoʻshimchalar imlosi. Soʻz oʻzgartuvchi, shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalar maʼnodoshligi va vazifadoshligi. Morfologik sinonimlar. Mustaqil soʻz turkumlari.

Ot, otning maʼno turlari, otlarning yasalishi. Inisiallar va ularning qoʻllanishi.

Feʼl. Toʻliqsiz feʼl.

Feʼl mayllari. Feʼl nisbatlari. Feʼl shakllari. Feʼlning yasalishi.

Sifat, uning lugʻaviy maʼnosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Sifat darajalari. Sifatning yasalishi. Sifatning otlashuvi. Sifatlarning uslubiy qoʻllanishi.

Son, uning lugʻaviy maʼnosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Sonning maʼno turlari. Sonning yasalishi. Sonning otlashuvi. Sonlarning uslubiy qoʻllanishi.

Ravish, uning lugʻaviy maʼnosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi.

Ravishning maʼno turlari. Ravishlarda daraja. Ravishning yasalishi.

Ravishlarning uslubiy qoʻllanishi.

Ona tilining yangilangan dasturi va DTS talablariga muvofiq **6-sinf oʻquvchilarning egallashi zarur boʻlgan koʻnikma va malakalar** quyidagilar:

Fikrni yozma ravishda bayon eta olish (miqdoriy koʻrsatkich - 12-14 gap; sifat koʻrsatkichlari - gaplarning oʻzaro toʻgʻri bogʻlanganligi, mavzudan chetga chiqmaganligi, abzaslarning kichik mavzu doirasida toʻgʻri ajratilganligi, fikr izchilligi, 6-sinfda oʻrganilgan til hodisalarining oʻrinli qoʻllanganligi.

Rivoya-matn, tasvir-matn tuza olish. Tabriknoma, maʼlumotnoma yoza bilish.

Feʼlning maʼno turlarini, feʼlning mayl va nisbat turlarini, feʼl shakllarini (harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh), sifatning maʼno turlarini, asliy sifat bilan nisbiy sifatni, soʻzning lugʻaviy maʼnosi bilan grammatik maʼnosini, sonning maʼno turlarini, ravishning maʼno turlarini farqlay olish. Feʼldagi oʻtimli – oʻtimsizlik, boʻlishli – boʻlishsizlik, shaxs – son va zamon shakllarini farqlash, toʻgʻri qoʻllay bilish.

Kelishik shaklidagi ot bilan ravishni, ot bilan kishilik olmoshini ajrata bilish.

Grammatik atamaga asoslanib, grammatik vositani, grammatik vositaga tayanib, grammatik atama va qoidani eslay olish.

Soʻz turkumlarining muhim belgilarini, soʻzlarning otlashuv hodisasini izohlay bilish. Sodda, qoʻshma, juft soʻzlarni oʻzaro farqlay olish.

Fonetik, lug`aviy, morfologik, sintaktik, uslubiy tahlil qila olish.

Nutqda o'zbek adabiy tili grammatikasining me'yor va imkoniyatlariga rioya qila olish. Sinonimlar, omonimlar, antonimlar va paronimlardan foydalanish talablariga rioya etish.

Qisqartma otlarni to'g'ri yozish va qo'llay bilish. Gapda so'z tartibiga amal qila olish.

Ona tili ta'limi uchun ajratilgan o'quv soatlari va mavzulari silsilasidan ko'rinib turibdiki, 6-sinf ona tili darslarida evfemizmlarni o'qitish uchun maxsus soatlar ajratilmagan. Ammo so'zshunoslik sathini takrorlaganda mohir o'qituvchi hech qachon bu mavzuni chetlab o'tmaydi. Ayniqsa, sinonimlar, leksik sinonimlar, ularning qo'llanilishi xususida gapirganda evfemizmlarga murojaat etish o'rinli va foydalidir. Fikrimiz dalili sifatida quyida ba'zi dars ishlanmalarni, o'quv topshiriqlari hamda darslarda foydalanish mumkin bo'lgan testlar tizimini tavsiya etishga harakat qilamiz.

1-dars ishlanmasi

Berilgan matndagi so'zlarni ma'nodosh, uyadosh va zid ma'noli so'zlar bilan almashtirish

Dars maqsadi: a) quyi sinfda o'tilganlar yuzasidan takrorlash va «So'zshunoslik» sathida o'rganganlarini mustahkamlash; b) o'quvchilar nutqini evfemizmlardan foydalanishga yo'naltirish; B)o'quvchilarni vatanga, onaga, kattalarga hurmat, muhabbat, andisha ruhida tarbiyalash.

Dars tipi: takrorlash

Dars usuli: induktiv

Dars jihozi:

Darsda foydalaniladigan vositalar:

Dars avvalida tashkiliy qism o'tkaziladi.

Mazkur mavzu 6-sinfning birinchi choragida «5-sinfda o'tilganlarni takrorlash» yuzasidan ajratilgan soatlar tarkibida berilgan. Shuning uchun mavzuni o'tilganlar yuzasidan umumiy takrorlash bilan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Mavzu yuzasidan umumiy savol va topshiriqlar:

1.Ma'nodoshlik qanday hodisa? Fikringizni misollar asosida dalillang.

2.Ma'nodoshlik hodisasi faqat so'zlar orasida uchraydimi yoki boshqa til birliklari (masalan, iboralar, qo'shimchalar) orasida ham uchrashi mumkinmi? Masalan....

3.Uyadoshlik deganda qanday hodisa nazarda tutiladi? Uyadoshlikka turli so'z turkumlari doirasida misollar keltiring.

4. Uyadoshlikning ma'nodoshlik hodisasiga daxli bormi? Fikringizni misollar asosida tushuntiring.

5. Tilimizdagi barcha so'zlarning ham zid ma'noli jufti mavjudmi? Nega?

6. Nutqimizdagi *achchiq-chuchuk, oq-qora* kabi zid ma'noli birliklarning *yaxshiyomon, uzun-qisqa* kabi birliklardan farqi bormi?

1-«Zig-zag» o'yin topshirig'i. O'quvchilarga proektor orqali maqollar, topishmoqlar matni navbat bilan ko'rsatiladi. O'quvchilar esa ularni zig-zag shaklida ma'nodoshlari, uyadoshlari yoki nutq vaziyatiga qarab zid ma'noli jufti bilan almashtirib qo'llashlari shart qilib qo'yiladi. O'yin-topshiriq shartiga muvofiq o'quvchi topshiriqni alohida tayyorgarliksiz, tez, to'g'ri va aniq bajarishga harakat qilishi zarur. Topshiriqni bajara olmagan o'quvchi o'yindan chiqaveradi va o'yin oxirida bitta yoki bir nechta g'olib qoladi, xolos.

O'quvchilar o'yin-topshiriqni quyidagicha bajarishlari mumkin:

Proektorda: Ayrilmagin elingdan,

Quvvat ketar belingdan. (Maqol)

O'quvchilar: Begona bo'lma xalqingdan,

Fayz ketadi umringdan.

O'quvchilar: Ko'chib ketma yurtiingdan,

Ayrilasan tinchingdan.

O'quvchilar: Ketar bo'lsang elingdan,

Darmon ketar tanangdan.

Proektorda: Baliq suv bilan tirik,

Odam-el bilan. (Maqol)

O'quvchilar: Bahor gul bilan yashnar,

Inson mehnat bilan yashar.

O'quvchilar: Bulbul chaman bilan tirik,

Kishi -vatan bilan.

O'quvchilar: Tuproq ekin bilan yashar,

Bashar-pok niyat bilan.

O'quvchilar: Yigit or bilan tirik,

Qiz-hayosi bilan.

Proektorda: Birovning yurtida bek bo'lguncha,

O'zingning yurtiingda it bo'l. (Maqol)

O'quvchilar: Begona elda amir bo'lguncha,

O'zingning elingda kuchuk bo'l.

O'quvchilar: Notanish diyorda to'ra bo'lguncha,

O'z maskaningda miskin bo'l.

O'quvchilar: O'zga vatanda podsho bo'lgandan,

Kindik qoning tomgan joyning gadosi bo'l.

O'quvchilar: O'zga elning shohligidan,

O'z elimning g'aribligi afzal.

Proktorda: Vatan uchun o'lmoq ham sharaf. (Maqol)

O'quvchilar: YUrt uchun jon bermoq ham shon.

O'quvchilar: El uchun qurbon bo'lmoq ham ovro'.

O'quvchilar: Ulus uchun tiriklikdan kechmoq ham zafar.

O'quvchilar: Diyor uchun jondan kechmoq ham jasorat.

Proktorda: O'rdak o'ziga oro bersa ham, oqqush bo'lolmas. (Maqol)

O'quvchilar: Zog` qancha sayrasa ham, bulbul bo'lolmas.

O'quvchilar: Maymun qancha aqlli bo'lsa ham, odam bo'lolmas.

O'quvchilar: CHumchuq to'lib semirsa-da, botmon bo'lmaydi.

O'quvchilar: Qarqunoq bor ovozi bilan soz chalsa ham, andalib bo'lmas.

O'quvchilar: Kanop qancha mayin bo'lmasin, ipak bo'lolmas.

O'quvchilar: Shakar qancha shirin bo'lmasin, asal bo'lolmas.

O'quvchilar: Eshak tez chopsa ham, ot bo'lolmaydi.

O'quvchilar: Bo'y qancha o'ssa ham, osmonga etolmaydi....

Proktorda: Yer ostida mushtdek go'sht. (Topishmoq: sholg`om)

O'quvchilar: Zamin tagida bir parcha et.

O'quvchilar: Tuproq ostida qizil go'sht.

O'quvchilar: Yer ostida mushtumdek et....

Topag`on, sergak o'quvchilar g`olib deb o'lon qilinadi va ularga rag`bat kartochkasi beriladi. Bu o'yin-topshiriq o'quvchilarda til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

2-«Klaster» o'yin topshirig`i. O'quvchilarning har beshtasi yoki oltitasi (bunday bo'lishda sinf imkoniyati hisovga olinadi) kichik guruh sifatida birlashtiriladi. Har bir guruhga alohida, ammo bajarilish usuli bir xil bo'lgan topshiriq beriladi.

1-kichik guruhga: Shakl ichidagi so'z o'rnida qo'llanilishi mumkin bo'lgan madaniy birlik(ya'ni evfemizmlar)larni tez va aniq topishga erishing.

o'lmoq

2-kichik guruhga: Shakl ichidagi so'z o'rnida qo'llanilishi mumkin bo'lgan madaniy birlik(ya'ni evfemizmlar)larni tez va aniq topishga erishing.

uylanmoq

3-kichik guruhga: Shakl ichidagi soʻz oʻrnida qoʻllanilishi mumkin boʻlgan madaniy birlik(yaʼni evfemizmlar)larni tez va aniq topishga erishing.

koʻmmoq

4-kichik guruhga: Shakl ichidagi soʻz oʻrnida qoʻllanilishi mumkin boʻlgan madaniy birlik(yaʼni evfemizmlar)larni tez va aniq topishga erishing.

er yoki xotin

5-kichik guruhga: Shakl ichidagi soʻz oʻrnida qoʻllanilishi mumkin boʻlgan madaniy birlik(yaʼni evfemizmlar)larni tez va aniq topishga erishing.

oʻladi

6-kichik guruhga: Shakl ichidagi soʻz oʻrnida qoʻllanilishi mumkin boʻlgan madaniy birlik(yaʼni evfemizmlar)larni tez va aniq topishga erishing.

Ishdan boʻshamoq

1-kichik guruh ***oʻlmoq*** soʻzi oʻrnida qoʻllanila oladigan quyidagilarni topishlari mumkin: «shunqor boʻlmoq», «soʻlmoq», «paymonasi toʻlmoq», «jonidan kechmoq», «jon taslim etmoq», «dunyodan oʻtmoq», «joni uzilmoq», «vafot etmoq», «qazo qilmoq», «jon bermoq», «dunyodan ketmoq», «tiriklikni tark etmoq», «fanodan baqoga ketmoq», «fanodan baqoga rixlat etmoq», «shahid boʻlmoq», «ruhi uchmoq», «yoʻqolib qolmoq», «chirogʻi oʻchmoq», «jonini egasiga topshirmoq», «koʻz yummoq», «egamning marhamatiga bormoq», «oyoq choʻzmoq», «oyoq uzatmoq», «yostigʻi qurimoq», «tashlab ketmoq», «nasibasi uzilmoq» va boshqalar. Bu sirani yana bemalol davom ettirish mumkin. Mazkur evfemizmlar orasidan «shunqor boʻlmoq», «fanodan baqoga ketmoq», «fanodan

baqoga rixlat etmoq», «shahid bo'lmoq», «egamning marhamatiga bormoq» kabilar arxaik xususiyatga ega ekanligi, ularni jonli so'zlashuvda emas, faqat badiiy asarlar tarkibida uchratish mumkinligi o'qituvchi yordamida tahlil qilinadi.

Shuningdek, «so'lmoq», «jon taslim etmoq», «qazo qilmoq», «chirog'i o'chmoq», «yostig'i qurimoq» kabi evfemizmlar badiiy nutqqa xos bo'lsa, «yo'qolib qolmoq», «qatorimizdan kam bo'lmoq», «ko'zimizni yoshlab ketmoq», «yolg'on dunyodan chin dunyoga ketmoq» kabi evfemizmlar shevalarda ko'p uchrashiga ham urg'u beriladi.

2-kichik guruh *uylanmoq* so'zi o'rnida qo'llanila oladigan quyidagilarni topishlari mumkin: «to'yi bo'lmoq», «mahramli bo'lmoq», «boshi ikkita bo'lmoq», «yoqasi oqarmoq», «oilali bo'lmoq», «bir oilaga bosh bo'lmoq», «jufti halolli», «bo'ydoqlikni tark etmoq», «bo'ydoqlik bilan xayrlashmoq», «xo'jayin bo'lmoq» va boshqalar.

3-kichik guruh (*o'likni ko'mmoq*) so'zi o'rnida qo'llanila oladigan quyidagilarni topishlari mumkin: «dafn etmoq», «tuproqqa topshirmoq», «so'nggi manzilga kuzatmoq», «chin dunyoga kuzatmoq», «gapirmaslar yurtiga yubormoq», «xokka topshirmoq» va boshqalar.

4-kichik guruh *er* yoki *xotin* so'zlari o'rnida qo'llanila oladigan quyidagilarni topishlari mumkin: *er o'rnida*– «oila boshlig'i», «xo'jayin», «begim», «to'r egasi», «egam», «bolalarning otasi», «otasi», «dadajonisi», «dadasi», «adasi» va h.; *xotin o'rnida*–«ojiza», «begoyim», «vazira», «bolalar(imiz)», «bolalarning onasi», «onasi», «oyisi», «ayasi», «onajonisi» va h.; har ikkalasi o'rnida–«jufti halol», «yostiqdosh», «umr yo'ldoshi», «mahram», «oila», «uy ichimiz», «tani mahram» va h..

5-kichik guruh *o'ladi* birligi o'rnida qo'llanila oladigan quyidagilarni topishlari mumkin: «umri bitganday», «tugab qolibdi», «vaqti-soati yaqin», «omonat bo'lib qolibdi», «paymonasi to'lgan», «nasibasi uziladigan», «jon taslim etadiganday», «joni uziladigan», «so'nggi nafasi qolgan», «yulduzi o'chadigan», «hayot chirog'i so'nadigan», «chirog'i lipillayapti» va h..

6-kichik guruh *ishdan bo'shamoq* birligi o'rnida qo'llanila oladigan quyidagilarni topishlari mumkin: «vazifasini topshirmoq», «kursisini bo'shatmoq», «joyini bo'shatmoq», «ozod bo'lmoq», «oxirgi maoshini olmoq», «hisov-kitov qilmoq», «ishini topshirmoq», «vazifasini topshirmoq» va h..

Topilgan birliklar o'qituvchi yordamida tahlil etiladi va tilimizdagi qo'pol, tinglovchining ko'nglini og'ritadigan birliklar o'rnida o'sha ma'noni ifodalay oladigan silliq birliklarni ishlatish nutqimiz go'zalligi, tarovatini oshirishi ta'kidlanadi. Tabiiyki, topshiriqni tez, soz va puxta bajarganlar rag'batlantiriladi.

3-«Tez, chaqqon va puxta» o'yin topshirig'i. Bunda kichik guruhlarga yozma she'riy matnlar tarqatiladi va matndagi so'zlarni mantiqan mos keladigan ma'nodosh, uyadosh va zid ma'noli so'zlar bilan almashtirish, shuningdek, she'riy matnni nasriy matnga aylantirish topshirig'i beriladi.

She'riy matn uchun 6-sinfning «Adabiyot» darsligidagi nazmlardan foydalanish o'rinli. Birinchidan, o'quvchi adabiyotdan o'tiladigan mavzuni chuqurroq o'zlashtiradi, ikkinchidan, she'riy matnlarni «hazm qilish»ni o'rganadi. Shuningdek, qaysi so'zning o'rnida yana qaysini qo'llash mumkin-u, qay birini ishlatish mumkin emasligini fahmlash malakasiga ega bo'ladi. Masalan, 6-sinf «Adabiyot» darsligida berilgan Zulfiya Isroilovaning «Men o'tgan umrga», «Bog`lar qiyg`os gulda» kabi she'rlarini tahlil uchun tanlaymiz.

Bog`lar qiyg`os gulda

1-matn. Bog`lar qiyg`os gulda–yaxlit bir chaman,
Har daraxt anvoyi bir tarovatda.

Bir kaft bog` mehnat-u hosilga vatan,
O'zga ko'rk, o'zga rang har bir daraxtda.

2-matn. Har navda bir gulda, har gulda bir ro'y,
Har daraxt bargi bir dunyo hikoya.

Har birin hosili o'zgasiga ko'rk,
Biri biri uchun qudrat, himoya.

3-matn. Vatanim ko'zimda: qay burchi aziz,
Bilmam, qayda tole serzavq, serjilo?

Yalpi to'lishadi bedaxl yurtimiz,
Naq har qarichi dil, jon tomir go'yo.

4-matn. Bir qardosh tinchisiz–o'zga beorom,
Birining nonisiz–o'zga emas to'q...

Bu–qadim dunyoda yangi bir olam,
Bunda orqa tog`siz bir tirik jon yo'q.
Tayanch bo'lmasaydi odamzod albat,
O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

Men o'tgan umrga

5-matn. Hayot kitovimni bexos varaqlab,
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.

Tabassum o'rnida kuldim charaqlab,
Suyish kerak bo'lsa–telbacha suydin.

Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxov,
Yurak boyligidan qilmabman parvo.

6-matn. Meni og`ushlagan hayot naq oftov,
Yangi qo`shiq talab unda har saboh.
Men o`tgan umrga achinmay qo`ydim,
Hech kimda ko`rmayin umrimga o`xshash:
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim,
Kuydim.

Izzat nima bildim,
Shu-da bir yashash!

O`yin-topshiriq shartiga ko`ra har bir guruh she`riy matnni nasriy matnga aylantiradi va matn tarkibidagi so`zlarni almashtirishga kirishadi. U quyidagicha amalga oshishi mumkin:

1-matn. Bog`lar qiyg`os gulda-yaxlit bir chaman,
Har daraxt anvoyi bir tarovatda.
Bir kaft bog` mehnat-u hosilga vatan,
O`zga ko`rk, o`zga rang har bir daraxtda.

O`quvchilar: *Bahor fasli. Bog`lardagi hamma daraxtlar qiyg`os gullagan. Gullagan har bir daraxt ajib tarovat kasb etgan. Hatto kichik bog`lar ham inson mehnatining mahsuli, bo`lajak hosilga zamin. Bog`lardagi biror bir daraxtning go`zalligi ikkinchisini takrorlamaydi.*

O`quvchilar: *Navbahor ayyomi. Bog`lardagi dov-daraxtlar gulga ko`milgan. Guldan kuylak kiygan har bir daraxt o`zgacha nazokat kashf etgan. Birgina nihol ham odamzod peshona terining natijasi, rizq-nasibaning ibtidosi. Bog`lardagi har bir tarovat o`zgacha, beqiyos.*

O`quvchilar: *Zaminda ko`klam nafasi. Bog`lar gulga cho`milmoqda. Anvoyi bo`yli chechaklar betakror. Turfa gullar-la kamalak bo`lgan eng kichik bog`cha ham inson yaratmishining mahsuli, bo`lajak mevalarning debochasi. Bog`lardagi biror gul-chechak latofatda bir-birini takrorlamaydi.*

2-matn. Har navda bir gulda, har gulda bir ro`y,
Har daraxt bargi bir dunyo hikoya.
Har birin hosili o`zgasiga ko`rk,
Biri biri uchun qudrat, himoya.

O`quvchilar: *Daraxt navdalarida bir tusli gullar, ammo bu chechaklarning hech biri ikkinchisiga o`xshamaydigan alohida go`zallik. Daraxtlarning har bir bargi yangicha tarovat afsonasini so`ylyotgandek. Bog`lar hademay hosilga kiradi, har bir daraxt mevosi bir-biriga*

o'z-o'zini ko'z-ko'z etadi go'yo. Yo'q, yo'q, ular shunchaki o'zlarini ko'z-ko'z etishmaydi, bir-birini to'ldiradi, himoya etadi va go'zallikka qudrat bog'ishlaydi.

O'quvchilar: Har bir daraxt shoxida bir rangdagi gullar ochilgan. Har bir chechakning ko'rinishi, go'zalligi bir-birini takrorlamaydi. Daraxt barglari ham shu qadar go'zalki, ularning nafasatini, latofatini alohida hikoya qilish mumkin. Daraxtlar tezda mevaga kiradi, bu jarayon ham juda go'zal bo'lib, turli mevali daraxtlarning hosillari bir-birini to'ldiradi.

3-matn. Vatanim ko'zimda: qay burchi aziz,

Bilmam, qayda tole serzavq, serjilo?

Yalpi to'lishadi bedaxl yurtimiz,

Naq har qarichi dil, jon tomir go'yo.

O'quvchilar: Ko'klamda yurtim juda go'zal bo'ladi. Uning qaysi joyi azizroq, jilokorroq, so'limroq ekanligini ko'zlarim ajratolmaydi. Butun diyorimiz go'zallik kuylagini kiyadi. Vatanimning har qarichi, har bir go'shasi men uchun jon tomirimdek aziz.

O'quvchilar: Diyorimning ko'klami nihoyatda suluvo. Boshqa joylar ham shunday ko'rkam, chiroyli bo'larmikan? Bilmadim. Ammo mening o'lkamning har qarichida go'zallik, nazokat hukmron. Yurtimning biror yerini bir-biridan kam deya olmayman, chunki har qarichi yuragimga tiriklik ildizi kabi yaqin.

4-matn. Bir qardosh tinchisiz-o'zga beorom,

Birining nonisiz-o'zga emas to'q...

Bu-qadim dunyoda yangi bir olam,

Bunda orqa tog'siz bir tirik jon yo'q.

Tayanch bo'lmasaydi odamzod albat,

O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

O'quvchilar: Yurtimda turli millat vakillari og'a-inidek yashashadi. Ularning yashash tarzlari mushtarak. Biri yupun bo'lsa, ikkinchisi qo'nim topmaydi. Ular bir-birlariga suyanchiq, go'yo orqa tog'dek. Agarda bu qardoshlar bir-birlariga elkadosh, tayanch bo'lishmaganda edi, inson zotining o'zi xuddiki o'zlariga baxt yaratganlari singari baribir do'stlikni yaratardi.

O'quvchilar: Yurtimning go'zalligini faqat tabiat yaratayotgani yo'q, buni bir-birlari bilan do'st, qardosh bo'lib yashayotgan bunyodkor xalqim barpo etmoqda. Mamlakatimizda yashayotganlar turmush tashvishlarini ham, shodliklarini ham birgalikda baham ko'rishadi, bir-birlariga tayanch, suyanch bo'lishadi. Agar taqdir ularga shunday yashashni ravo ko'rmaganda ham ular o'zlariga tole yaratganlari kabi birodarlikni ham qo'llari bilan barpo etgan bo'lardilar.

Men o'tgan umrga

5-matn. Hayot kitovimni bexos varaqlab,
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.
Tabassum o'rnida kuldim charaqlab,
Suyish kerak bo'lsa–telbacha suydim.
Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxov,
YUrak boyligidan qilmabman parvo.

O'quvchilar: O'tgan umrimni sarhisov etib to'g'ri va baxtli yashaganligimga amin bo'ldim. Qalbimda insonlarga mehr, harorat bilan yashadim. Bir inson kabi sevdim, sevindim. Qalbimni to'ldirgan ma'naviy boyligimni moddiy boylıklardan ustun qo'ya oldim.

O'quvchilar: Men hayotimning o'tgan qismiga achinmayman, chunki men baxtli yashadim. Sevdim, sevildim, qalbimni insoniy tuyg'ular bilan to'ldirib yashadim. Kiyim-kechakni, zebu ziynatlarni hayotimning asosi deb bilmadim.

6-matn. Meni og'ushlagan hayot naq oftov,
Yangi qo'shiq talab unda har saboh.
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,
Hech kimda ko'rmayin umringa o'xshash:
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim,
Kuydim.
Izzat nima bildim,
Shu-da bir yashash!

O'quvchilar: Men quyosh taftidek issiq hayot bag'rida umr o'tkazdim. Har bir insonning umri kabi mening ham hayot yo'lim o'zgacha. Bir insonning yashashi uchun nima kerak bo'lsa–sevgimi, baxtmi, ayriliqmi, o'tibormi– men barchasiga erishdim. Bir insonning umr yo'li–shu!

O'quvchilar: O'tkazgan taqdir yo'limga achinmayman. Men axir kun taftidek qaynoq, yangi qo'shiqqa oshufta hayot qo'ynida yashadim. Bir inson erishishi mumkin bo'lgan o'zimdagi kabi baxtni birovlarda uchratmadim. Men bir baxtiyor inson sifatida hayotning tortiqlaridan ham, zarbalaridan ham teng baravar bahramand bo'la oldim. Aslida bu hayotning o'zi!

Guruhlar tuzgan matnlarida o'yin-topshiriq sharti qaydarajada bajarilganligiga qarab baholab boriladi.

Dars oxirida mavzuni o'quvchilar o'qituvchi hamkorligida xulosalaydilar: O'zbek tilimiz juda boy va serjilo. Unda bir mazmunni turli vositalar orqali ifodalash imkoniyati mavjud. Tilimizda muloqot jarayonida so'zlovchining nutqini

qo'pol so'zlarni qo'llashdan yoki tinglovchining «ko'ngliga tegishi mumkin» bo'lgan noqulay so'zlarni ishlatishdan saqlovchi birliklar ham bor. Bulardan biri evfemizmlardir. Evfemizmlar qo'pol, noqulay ma'noni beruvchi so'zlar ifodalagan mantiqni madaniy tarzda ifodalanishini ta'minlaydi. Evfemizmlar madaniyatli insonlar nutqini boytitadi, sayqallaydi va madaniylashtiradi.

Dars oxirida o'quvchilarga uyga vazifa sifatida quyidagi so'zlarning evfemizmlarini topib, ular ishtirokida gaplar tuzib kelish topshirig'i beriladi: (so'zlar o'quvchi yozib olishi uchun monitor orqali ko'rsatilishi qulay) yiqilmoq, engilmoq, sevmok, so'kmoq, ajrashmoq, o'ldirmok, mast bo'lib qolmoq, jinni bo'lib qolmoq, aza, kasal.

O'quv mashg'ulotida yaxshi qatnashgan o'quvchilar baholanadi, rag'batlantiriladi.

Shuningdek, darslarda evfemizmlar bilan bog'liq quyidagi test topshiriqlaridan ham foydalanish o'rinlidir.

1-test

«Oqibat... Bo'ri polvon... Polvon nomini olgandan buyon umrida birinchi marta elkasi er ko'rdi.» Ushbu gapda qaysi so'zning evfemizmi berilganligini aniqlang.

A) ag'darmoq B) yiqilmoq C) yerga qaramok D) yerga qaratmoq

2-test

«Sport ustasi Maksim polvon yulduz sanadi. Ha-l-o-o-ol.» Ushbu gapda qaysi so'zning evfemizmi berilganligini aniqlang.

A) ag'darmoq B) yiqilmoq C) erga qaramok D) erga qaratmoq

3-test

«Bo'ri polvon Suluwni begona qilmadi.» Ushbu gapda qaysi so'zning evfemizmi berilganligini aniqlang.

A) yoqtirmok B) uylanmoq C) qarindosh bo'lmoq D) sevilmoq

4-test

«Qiz besaranjom xonani tozaladi.» Ushbu gapda qaysi so'zning evfemizmi berilganligini aniqlang.

A) irkit B) yo'g'on C) iflos D) savalamok

5-test

«U battol mingboshining tomog'ini moylagan.» Ushbu gapda qaysi so'zning evfemizmi berilganligini aniqlang.

A) pora bermok B) pora olmoq C) o'g'rilamoq D) ovqatlantirmok

6-test

«Sizni va otamni juda sog`indim, agarda og`ir oyoq bo`lmasam edi, qish bo`lishiga qaramasdan Marg`ilonga jo`nar edim.» Ushbu gapda qaysi so`zning evfemizmi berilganligini aniqlang.

A) qaynonali B)homilador C)oilali D) erli

7-test

«Sizni va otamni juda sog`indim, agarda og`ir oyoq bo`lmasam edi, qish bo`lishiga qaramasdan Marg`ilonga jo`nar edim.» Ushbu gapda qaysi so`zning evfemizmi berilganligini aniqlang.

A) qaynonali B)homilador C)oilali D) erli

8-test

«Sizni va otamni juda sog`indim, agarda og`ir oyoq bo`lmasam edi, qish bo`lishiga qaramasdan Marg`ilonga jo`nar edim.» Ushbu gapda qaysi so`zning evfemizmi berilganligini aniqlang.

A) qaynonali B)homilador C)oilali D) erli

9-test

«Sizga bir armon bo`lay, hazrat begim.» Ushbu gapda qaysi so`zlarning evfemizmlari berilgan?

A) o`lmoq; er B)o`lmoq; xotin C)ketmoq; er D) ayrilmoq; erkak

10-test


«Dushman tankini yer bilan yakson qilishdi.» Ushbu gapda qaysi so`zning evfemizmi berilganligini aniqlang.

A) portlatmoq B)portlamoq C)pachoqlamoq D) buzmoq

Shuningdek, o`quvchilarga kundalik turmushlarida ishlatiladigan so`zlar bilan bog`liq qisqacha evfemik lug`at tuzdirish ham mumkin. Faqat bir narsani hisovga olish zarurki, bunday lug`atlar bir kunda yoki bir dars davomida tuzilmaydi. Qisqacha evfemik lug`at tuzib borishni o`quvchiga doimiy topshiriq sifatida berish, ularning faoliyatlarini vaqti-vaqti bilan nazorat qilib borish, nazoratni chorak oxirida yakunlash mumkin.

Demak, evfemik birliklar salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta'sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me'yorlarga zid keladigan holat yoki to'g'ridan-to'g'ri aytish mumkin bo'lmagan maxfiy voqelikning salbiy ta'sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi (Qarang: 1-chizma):

1-chizma



1-chizma. Evfemizmlarning o'quvchi nutqiga ta'siri beqiyos

Davr va jamiyat uchun evfemalashtirishga muhtoj bo'lgan ishlatilishi noma'bul birlikni almashtira oladigan evfemiyalar maishiy evfemizmlar hisoblanadi. (B.A.Larin)